

Sharq filologiyasi fakulteti
5A120101- Adabiyotshunoslik
(sharq tillar va tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha)
mutaxassisligi 2 kurs magistranti
Gulyamova Nazokat Raxmatulla qizi
Ilmiy rahbar: f.f.n dots. Akbarova M.

Yapon adibi Natsume Sousekining “Bolakay” nomli realistik romanining mavzular ko‘lami hamda poetika

Jahon adabiyotida o'ziga xos mashhurlikka ega bo'lgan, yapon adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri, realizm yo'nalishining rivojiga munosib hissa qo'shgan yozuvchi Natsume Souseki, o'z asarlarining haqqoniyligi va yapon xalqining yetuk hayot sari bo'lgan intilishlarini ijodida aks ettirganligi bilan ajralib turadi.

Natsume Souseki bolalik chog'idan bilimga mehr qo'ygan bo'lib, maktab va talabalik davrlaridan boshlab yosh ijodkor sifatida she'r yozib, xitoy hamda ingliz tillaridan adabiy tadqiqotlar, tarjimalarni bosmadan chiqara boshlaydi.

Yapon adabiyotining buyuk namoyondasi Natsume Sousekining ijodi o'zbek adabiyotining atoqli yozuvchisi Said Ahmadning ijodi bilan o'xshashlikka egadir. Sababi, Said Ahmad bolalik chog'idan qiyinchilikda voyaga yetadi va katta qiyinchiliklarni boshidan kechirgan bo'lsada, yozgan yumoristik asarlari buning aksidir. Ushbu yumor orqali Said Ahmad jamiyatdagi ba'zi kamchiliklar ustidan mohirona so'zlarni qo'llash orqali ularni tanqid qilib, kulgu ostiga olgan. Bunday jihat Natsume Souseki ijodida ham ko'rinadi. U ham adabiyotchi bo'lib yetishguniga qadar hayotida juda ko'p qiyinchiliklar va ayriliqlarga duch keladi. Bu ikki adibning shaxsiy hayotidagi o'xshashliklar keyinchalik asarlarida o'z aksini topdi hamda asarlarining haqiqiylikini ta'minladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ular yoshlik davrlaridan hayotning past-u balandliklarini ko'rib, tarbiyalanishgan. Bu ikki insonning tarbiyasida eng muhim omil sifatida oilani ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, qandaydir eskicha fikrlaydigan emas, balki, hayotga teran fikrlar bilan qaraydigan ota-onaning roli muhimligini kuzatamiz va bu fikrlar qanchalik haqqoniylikni tushunamiz. Sousekining “Bolakay” romanida ham bola tarbiyasida ota-ona va maktabning o'rnini ko'rishimiz mumkin. Faqat ushbu romanda ota-ona obrazi ancha go'l qilib tasvirlangan. Bunga qarama-qarshi tarzda bosh qahramon haqgo'y va dunyoqarashi keng qilib ifodalangan.

Adib tug'ilgan yili yosh yapon burjuaziyasi feodalizm tizimidan ozod bo'ldi. Burjua-monarxiya davlati vujudga kelib, liberalizm ruhi sezilib turar edi. Imperator Meiji ma'rifatli rahbar rolini bajarar, o'zi ilm va san'at homiysi hisoblanib, she'rlar ham yozib turardi. Yangi rejim qanoti ostida eski feodallar panoh topgan bo'lib, ammo mayda boylar hali o'zini tiklay olmagan edi. Bunday insonlar orasida adibning otasi ham bor edi. 1868-yildagi burjua to'ntarishi mashhur Meiji inqilobida bir qator dolzarb masalalar orasida millat qadrlari masalasini ko'tarib chiqadi. Bu endi rivojlanish sari yo'l olgan davlat uchun juda dolzarb masala, deya

tasdiqlagan adib. Shu munosabat bilan o'zgargan sharoit va ta'lim tizimi bo'lajak yozuvchining shakllanishi va kamol topishiga xizmat qilgan.

Adib faqatgina asarlar yozish bilan cheklanibgina qolmay, bir qancha yapon va ingliz adabiyotiga tegishli qaydnomalar, adabiyotshunos do'stlari, zamondoshlari to'g'risidagi xotiralarni ham qalamga olgan. Adib asarlari jami 20 tomni tashkil etadi. Souseki universitetni tamomlaganidan so'ng, Shikoku¹ dagi Matsuyama qishlog'iga o'rta maktabda dars bergani ketadi. Yozuvchining ushbu qishloqdagi bir yillik hayoti unga ko'p narsalarni anglashga yordam beradi. Jamiyatda turli xil dunyoqarashga ega bo'lgan odamlarni ko'rib, inson qadrini tushunib yetadi va Tokyoda son-sanoqsiz o'qituvchilarni ichida qadrsizlanib yurguncha, bu yerda xalqqa foydam teggani afzal, deb hisoblaydi. Keyinchalik esa adibning Matsuyama qishlog'ida kechgan hayoti uning "Bolakay"² romanida aks etadi.

"Bolakay" romani 1906 yilda yaratilgan bo'lib, Souseki³ning ko'plab asarlari orasida uzoq yillardan beri ko'plab kitobxonlar tomonidan sevib o'qilib kelinayotgani nodir va kamyob asar hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi zamonaviy yapon adabiyotini ko'radigan bo'lsak, halihanuz, yosh kitobxondan boshlab o'smirlargacha, o'rta yoshlilar va yoshi katta kitobxonlarga qadar ommabob tarzda o'qib kelinmoqda. Shu sababdan ham tug'ilib, hozirgacha "Bolakay" romani hech eskirmay har doim yosh va sog'lom ko'rinishini yo'qotgan emas.

Mazkur roman, Natsume Souseki³ning asarlari ichida ham o'ziga xos muhim xususiyatga ega bo'lgan asardir. Tushunish oson bo'lgan edo³lik bolaning tilidan ifodalangan bo'lib, oddiy va aniq tilda yozilganligi uchun yosh maktab o'quvchilari ham o'qiy oladigan asar hisoblanib, undagi so'zlar har doim yangidek asarning mazmun mohiyati bilan juda mos keladi. Yana ustiga ustak asar yetarlicha yumorga ham ega. "Bolakay" romani dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Ushbu romanda adib, o'qituvchi bo'lib ishlagandagi tajribalarini hamda ayrim kasbdoshlarini asarga obraz sifatida kiritadi. Romandagi bosh obraz bo'lgan bolakay haqiqatgo'y, ochiqko'ngil va nohaqlikka chidab turolmaydigan, sabrsiz xarakter egasi sifatida tasvirlangan. Obrazlar orasida shum, ko'rolmas, tilyog'lamachi va ko'ngli qora xarakterlar ham mavjud. Asar bosh qahramoni hisoblangan bolakay Souseki³ning ilk ijobiy xislatli qahramoni sanaladi.

"Bolakay" romanidagi voqealar rus-yapon urushining birinchi yili sodir bo'lganini adib ta'kidlab o'tgan. Bu asar to'g'riso'z, ayyorlikni bilmaydigan o'spirinning hayoti to'g'risida. Asar qahramoni hayotga ochiq va toza qalb bilan boqadiki, uni o'rab turgan muhit halollik va oliyjanoblikdan uzoq va oddiygina ahmoqlik, deb baholaydi. Ota-onasining vafotidan so'ng tabiiy fanlar o'quv dargohini tamomlagan "bolakay" uzoq provinsiya o'rta maktabga matematika o'qituvchisi sifatida yuboriladi. Bu yerda u haqiqiy hayot bilan tanishadi. Uning fikrlari, adolatga ishonishi, g'arazligi yo'qligi u bilan muloqot qilgan odamlarga yovvoyi va axmoqona tuyuladi. Ishonuvchan va sodda asar qahramoni ayyorlik, yolg'on, g'araz hukmronlik qiluvchi bunday sharoit bilan chiqisha olmaydi. So'ng

¹ Shikoku-yapon tilida "to'rt viloyat" degan ma'noni bildiradi. Yaponiyada maydoni hamda joylashishi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turuvchi eng yirik orol.

² "Bolakay" 1906 yilda Natsume Souseki tomonidan yaratilgan. Yaponcha nomi "Bochchan".

³ Edo – 1868 yilga qadar Yaponiyaning poytaxti bo'lgan, hozirgi Tokioning qadimgi nomi.

bunday sharoitga ko'nika olmagan sababli, maktabda bir yil ham ishlay olmay Tokyoga qaytishga majbur bo'ladi. Taqdiri shunday past insonlarning qo'lida bo'lgani uchun o'z o'quvchilari haqida juda ko'p o'ylaydi. Bolakay bunday tarbiyachilar o'quvchilarga bilimga intilishni ham, jamiyatga bo'lgan hurmatni ham, oddiy namunali inson bo'lishni ham o'rgata olmasligini tushunadi. Bu fikr Natsumega tasodifan kelgani yo'q. U yosh avlodning tarbiyalanish mavzusiga alohida ahamiyat beradi va o'z asarlarida bu mavzuga bir necha marta qaytadi. Yozuvchi bu sohada adabiyot xizmatining beqiyosligini va yosh avlodni ko'proq kitob bilan tanishtirib borish kerakligini ta'kidlaydi.

Shuni aytib o'tish joizki, "Bolakay" qaysidir ma'noda avtobiografik asardir. Adibning o'zi ham yoshligidagi ba'zi bir epizodlardan asarda foydalanganini xotiralarida qayd etib o'tgan. Asar muallif tilidan bayon qilinmaydi. "Bolakay"ning fe'l-atvori, uning ichki olami o'quvchi oldida qahramonning harakatlari, dushmanlari bilan to'qnashuvi, do'stlariga nisbatan bo'lgan munosabati, uni katta qilgan enagasi haqidagi iliq xotiralar orqali yuzaga chiqadi. Bolakayning maktabdagi faoliyati uning uchun ko'p saboq bo'ladi. Yaqinlaridan uzoqda, yolg'izlikdagi hayoti davomida atrofdagilarning qadriga yetishni, ya'ni, inson qadrini tushunib yetadi. Ushbu faoliyati davomida bolakay, ustozlar bilan ko'p kelishmovchiliklarga uchraydi, maktabdagi nohaqsizliklarga chiday olmaydi.

Asarning har bir qahramoni o'z individualligiga, o'z gapirish va harakat uslubiga ega. Shulardan biri, Barsuk laqabli maktab direktori, Barsuk laqabli maktab direktori faqatgina o'z manfaatini o'ylaydigan, doimo o'z shaxsiyatini ustun qo'yadigan insondir. Maktab direktorining bunday harakatlari bolakayga mutlaqo begona. Asardagi yana bir obraz egasi Qizil ko'ylak laqabli inson esa, har qanday pastkashlikka boradi. O'z qilmishlarini esa balandparvoz so'zlar bilan yashirishga urinadi. Aslida esa u qo'rqqoq va g'iybatchi odamdir. Shu bilan birga, mazkur romanda ijobiy qahramon sifatida Oshqovoq laqabli obraz matematika o'qituvchisi sifatida gavdalanadi. Bolakay Oshqovoq laqabli sokin va himoyasiz o'qituvchiga rahmi kelib uni himoya qilgisi keladi. Provinsiyaga kelgan chog'ida matematika o'qituvchisining bolakayga qilgan qo'polliqi, uni avval salbiy fikrlashga majbur qiladi. Aslida esa, ko'ngli toza, mehribon inson ekanligini bolakay his qilar hamda maktab o'qituvchilari orasida yuqori darajada obro'ga ega ekanligini tushunib yetar edi. Bolakayning dushmanlarini muallif yaxshigina qoralaydi. Asardagi ijobiy qahramon yolg'iz emas. Hasadli, g'arazli qahramonlarga faqatgina bolakay emas, balki uning enagasi Kiyo ham qarshi qo'yilgan. U bag'rikeng, mehribon ayol bo'lib, bolakayning tarbiyasiga juda katta hissa qo'shgan. Qanday vaziyat bo'lmasin, u bolakayni qo'llab-quvvatlar, o'z farzandidek ko'rar edi. Shu sababli ham, asar davomida bosh qahramon enaga Kiyoni tez-tez yodga oladi. Matsuyama qishlog'idagi maktabda nohaqsizliklarga chiday olmagan bolakay, Tokyoga qaytishga majbur bo'ladi. U yashash uchun o'ziga joy ham qidirmay, shoshganicha enagasi Kiyoning uyiga keladi. Bolakayning uyga qaytganidan sevingan enaga, ko'z yoshlarini ham to'xtatib tura olmadi. Romanning so'ngida Kiyo og'ir xastalikka uchraydi va vafot etadi. Kiyoning vasiyatiga ko'ra, u bolakayning oila a'zolari dafn etilgan qabr yoniga

qo'yiladi. Ota-onasi hayotligida bolakayga ko'p mehr ko'rsatgan Kiyo, doimo bolakayni "bochchan"⁴ deb chaqirar edi.

Shuni ham aytish kerakki, "Bolakay" romanida adib o'z hayotini yoritganiga yana bir dalil shuki, "Oynaband eshik sirtida" nomli ocherklarida bu haqida ko'p esdaliklar qoldirgan. Adibning ota-onasi faqat katta farzandlarini yaxshi ko'rishgan. Kunlarning birida xizmatkor ayol achinganidan yosh Natsumening qulog'iga iliq so'zlar aytib, uning ko'nglini ko'taradi. Bu voqea adibning ko'nglida bir umrlik yorqin xotira bo'lib qoladi hamda shu sababli yozuvchi ushbu ayolni o'z asariga obraz sifatida kiritadi.

Mazkur romanning o'ziga xos tomonlaridan biri sifatida, asarda poetikaning mavjudligini aytib o'tish lozim. Yozuvchining o'zgacha yozish usuli bor, ya'ni, romanda qahramonlar ism bilan emas, laqablar bilan ifodalangan. Yuqorida sanab o'tilgan obrazlardan Barsuk ismli maktab direktori ko'rinishidan sovuqqon odam bo'lganligi, qizil ko'ylakli o'qituvchi esa doimo qizil rangli kiyimlarni kiyishi sababli ismi keltirilmagan holda ifodalanadi. Hattoki, bosh qahramon bo'lgan bolakayning ham ismi aytib o'tilmaydi. Asar qahramoni beg'ubor, sodda bo'lganligi uchun ham yozuvchi bolakay deb nomlagan, degan fikrga borsak bo'ladi. Ushbu romanda faqatgina bolakayning enagasi, ya'ni, Kiyo ismi uchraydi. Sababi, adib bolalik chog'idagi xotirasi sifatida mazkur obraz egasiga ism bergan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yapon adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan adabiyotshunos olim, realizm yo'nalishining rivojiga munosib hissa qo'shgan mashhur adabiy tanqidchi Natsume Souseki, yapon adabiyoti osmonida yorug' yulduz bo'lib yondi va bu yulduz shulasi hanuzgacha so'ngani yo'q. Uning "Bolakay" romani hali hanuz Yaponiyaning eng mashhur asarlaridan biri hisoblanib, o'z adibi nomini abadiylashtirmoqda. "Bolakay" oxir-oqibatini o'ylamay, haqiqat va adolat uchun kurashadigan yosh avlodning timsoliga aylanib qolgan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. "Bolakay" romanining o'ziga xosligi shundaki, asar o'sha davr jamiyati muammolari, maishiy hayotni yoritib, yumorga juda boyligi bilan adibning boshqa asarlaridan ajralib turadi.

Natsume Souseki ijodi yapon millatiga, yapon adabiyotiga jahon miqyosida qo'yilgan juda katta haykal misoli bo'ldi. Adib yaponcha hissiyotni, sabr-toqatni, matonatni, kuch-shijoatni, metin irodani, sharqona aql, mehr-muhabbat, shuurni, sadoqatni, jozibani o'z asarlariga singdira oldi. Yozuvchi ana shu holatni qahramon nutqida real tasvirlab, kitobxonning xalqchilikka tashna bo'lgan ehtiyojlarini qondirdi.

Natsume Souseki o'zining asarlarida yolg'onchilik, xudbinlik kabi illatlarni qoralab, kishilarni hamisha oqko'ngil, samimiy bo'lishga undaydi. Yozuvchining asarlari reallikka asoslanadi hamda adib yaratgan asarlar hanuzgacha tirik va o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, butun dunyoda qayta-qayta nashr etilmoqda va sevib o'qib kelinmoqda.

⁴ "Bochchan" so'zi yapon tilidagi "o'bochchan" so'zidan olingan bo'lib, "xo'jayinimning o'g'li" degan ma'noni bildiradi. Bu so'z yosh bolalarga nisbatan qo'llanilib, hurmat qilish, shu xonadon farzandining zodagonligini unutmaslik ma'nosida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. 2010
2. Н.И.Конрад. Очерки японской литературы. М, 1973
3. 福田清人 『夏目漱石 人と作品』 （新書判：清水書院、1966 年）

**Toshkent davlat sharqshunoslik institutining “Adabiyotshunoslik”
mutaxassisligi 2 kurs magistranti Gulyamova N.R.ning “Yapon adibi
Natsume Sousekining “Bolakay” nomli realistik romanining mavzular
ko‘lami hamda poetika” nomli maqolasiga**

TAQRIZ

Jahon adabiyotida o‘ziga xos mashhurlikka ega bo‘lgan, yapon adabiyotida realizm yo‘nalishiga o‘z ijodi bilan ulkan hissa qo‘shgan yozuvchi Natsume Souseki hayoti hamda ijodi O‘zbekistonda kam o‘rganilgan .

Mazkur maqolada, adib Natsume Sousekining mashhur romanlaridan birining mavzular ko‘lami hamda asardagi poetika ochib berilgan.

Yapon yozuvchisining ushbu romani o‘sha davrning jamiyati, maishiy hayoti, insonlar taqdirini o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, roman avtobiografik asar ham sanaladi. Sababi, adib o‘zining bolalik chog‘ini mazkur asarga kiritadi. Natsume Souseki asarlarida o‘zining boshidan kechirgan voqealarni ifodalagani sababli, realizm yo‘nalishida ijod qiluvchi yozuvchilardan hisoblanadi.

Asar realistik ruhda yozilganligi muallif tomonidan ochib berilgan hamda realizm yapon adabiyoti nuqtai nazaridan yoritilgan.

Ushbu maqola bir necha umumiy mazmunga ta’sir etmaydigan kamchiliklarga ega bo‘lsa ham, ijobiy baholanadi va nashrga tavsiya etiladi.

Ilmiy rahbar: dots., M.X.Akbarova